



**MUHAMMAD ALIXON HUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON
XONLIGINING TASHQI SIYOSATI**

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,
Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi
E-mail: ruxshona01062005@gmail.com
Tel: +998931021725

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Qo'qon xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Alixon (Madalixon)ning hayot-faoliyati, xonlik tarixida tutgan o'rni, Buxoro amirligi bilan bo'lgan ziddiyatli munosabatlari va fojeali taqdiri haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Umarxon, Nodirabegim, Muhammad Alixon, amir Nasrulloxon, Pekin – Qo'qon sulh shartnomasi, “G'oziy”.

Аннотация:

В статье представлена информация о жизни и деятельности Мухаммада Али-хана (Мадали-хана), оставившего неизгладимый след в истории Кокандского ханства, его месте в истории ханства, его противоречивых отношениях с Бухарским эмиратом и его трагической судьбе.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Умархан, Нодирабегим, Мухаммад Али-хан, эмир Насруллохан, Пекинско-Кокандский мирный договор, «Гази».

Abstract:

This article provides information about the life and work of Muhammad Alikhan (Madalikhan), who left an indelible mark on the history of the Kokand Khanate, his place in the history of the khanate, his conflicting relations with the Bukhara Emirate, and his tragic fate.

Keywords: Kokand Khanate, Umarkhan, Nodirabegim, Muhammad Alikhan, Emir Nasrullokan, Beijing-Kokand Peace Treaty, “Ghazi”.



Qo'qonning "Amir ul-muslimin" unvonini olgan xoni Umarxon kasallanib vafot etganidan so'ng taxtga uning o'g'li Muhammad Alixon (Madalixon) o'tiradi.

Muhammad Alixon 1806-yil xonlikning poytaxti Qo'qon shahrida tavallud topgan. Qo'qon xoni Umarxon va shoira Nodirabegimning farzandi hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligi hududi yanada kengayadi, xususan, qirg'izlar yaxshovchi bir qator hududlar xonlikka qo'shib olinadi, Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammad Alixon hukmronligini tan oladi [4. – B. 309.].

Mirzoolim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" ("Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi", "Qo'qon xonligi tarixi") asarida shunday yoziladi: "Ul zoti boborakot jannatmakondin ikki o'g'il yodgor qoldi: avvali Muhammad Alixon, ikkinchisi Sulton Mahmudxon. Ulamo va fuzalo hamda mashoyixlar va umaro ittifoqlari birla Madalixon 17 yoshida taxtga o'tirdi. Umarxondan qolgan vazirlar maslahati bilan hukmronlik qildi, ulug' davlatlik, azim eshon podshohi bo'ldi. Atrofidagi hukmdorlar, jumladan Buxoro amiri va Urganch iztirobda edi [1. – B. 20.].

Muhammad Alixon taxtga chiqqandan so'ng, uni hokimiyatga chiqishidan norozi bo'lgan amaldorlarni qatl etishdan boshlaydi. Buning natijasida xonga qarshi muholifat boshlanadi. Sharqiy Turkistonda Xitoy imperiyasiga qarshi urush olib boradi. Bunga sabab Xitoy hukumatining Sharqiy Turkistonda xo'jalar va musulmonlarga tazyiqi edi. Madalixonning Sharqiy Turkistonda musulmonlar himoyasi uchun uyushtirgan yurishlari, tadbirlari Buxoro amirining nazaridan chetda qolmadi. V.Nalivkinning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Haydar 1826-yili xon huzuriga Ismatullabiy boshchiligidagi elchilarni sovg'a-salomlar bilan yuboradi [5. – B. 40.].

Muhammad Alixon istilochilik yurishlarini davom ettirib, Qorategin, Ko'lob va Darvozni egallaydi va xonlik hududi ancha kengaytiradi [2. – B. 107-108.]. 1826 – 1831-yillar davomida u Qashg'arga harbiy yurish uyushtiradi va qozonilgan g'alaba natijasida Pekin – Qo'qon sulh shartnomasini imzolanadi. Unga ko'ra, Qashqardagi savdo munosabatlari nazorati to'liq Qo'qon xonligi ixtiyoriga o'tdi. Bundan tashqari xitoyliklar Madalixonga Qashqardan boj yig'ish huquqini ham berishga majbur bo'ladi [3. – B. 316.]. Qashg'arda musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qilib,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

70 ming uyg'ur musulmonlarini Farg'ona vodiysiga ko'chirib keladi. Natijada, din ulamolari Muhammad Alixonga "G'oziy" ("Din homiysi", "Din yo'lida kurashuvchi") unvonini beradilar [4. – B. 309.].

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Muhammad Alixon hukmronligining so'nggi yillariga kelib, davlat ishlaridan ancha uzoqlashadi. Aysh-ishratga berilib ketadi. Hokimiyatni boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan, xonning yaqin maslahatchisi, Haqqulining qatl qilinishi uning hokimiyatiga qarshi saroy a'yonlariga va xonlikning asosiy raqibi Buxoro amiri Nasrulloqa qo'l kelgan [5. – B. 18.].

Buxoro taxtiga amir Nasrulloxonning kelishi bilan Qo'qon – Buxoro munosabatlari yanada keskinlashgan. Rus sharqshunosi V.Nalivkinning yozishicha, Nasrulloxonning yaqin qarindoshlaridan biri – Umarxon amir tazyiqidan qochib, Qo'qonga kelgan. Uni qo'qonlik mansabdorlar juda yaxshi kutib olgan. Hatto xonning yaqin amaldorlaridan biri – Is'hoq devonbegining qiziga uylantirganlar. Nasrulloxon ham o'z navbatida Muhammad Alixondan norozi bo'lgan shaxslarni Buxoroga to'play boshlagan. Muhammad Alixonning Qo'qondan quvilgan ukasi Sulton Mahmud ham amir saroyidan panoh topgan. Tarixiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, u amir buyrug'i bilan O'rmitonga hokim qilib tayinlangan.

Shunday murakkab davrda, g'ayridinlarga qarshi kurashda "g'oziy" unvonini olgan Madalixonning marhum otasining kanizagi Xonposhsha oyimga uylanishi faqat saroydagina emas, balki butun xonlikda ham uning obro'sini tushirib yuborgan. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada og'irlashgan. Qo'qonga yurish uchun qulay paytni kutib turgan Nasrulloxonga Xonposhsha oyim voqeasi juda qo'l kelgan. Tarixchi, Yo'lchi Qosimovning yozishicha, 1840-yil (ayrim manbalarda bu voqea 1842-yilda bo'lib o'tganligi yozilgan) Qo'qon xonligi saroyidagi muxolifat kuchlar Qo'qonda xon boshchiligida shariat qonunlarini tiklanishi uchun (go'yoki) Nasrulloxondan yordam so'raydilar. Nasrulloxon esa o'z elchilari orqali Madalixonga maktub yo'llab, uni o'gay onasiga uylanganligida ayblagan va juda qattiq haqorat qilgan. Shundan keyin ikki o'rtada urush harakatlari boshlanib ketgan. Qo'qon va Buxoro o'rtasidagi dastlabki jang 1840-yil avgustda chegara yaqinidagi Peshagar qo'rg'onida bo'lib o'tadi. Yo'lchi Qosimovning yozishicha, Peshagar Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan. U yerda amirning 800 askari mudofaada turgan.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

Buxoro askarlari Muhammad Alixon o'zining 400 askari bilan sayrga chiqqan paytida to'satdan hujum qilishadi va xonga zarba beradilar. Muhammad Alixon qurshovdan zo'rg'a qochib chiqadi. Ushbu jang haqida boshqa tarixiy manbalarda boshqacharoq ma'lumotlar ham beriladi. Misol uchun, V.Nalivkin Peshagar Qo'qon xonligi istehkomi bo'lganligi va Madalixon qo'rg'on mudofaasini Gadoybiy dodxoh boshchiligidagi 100 nafar himoyachilarga topshirilganligi haqida yozgan. Uning yozishicha, amir qo'shinlari bir necha ming kishilik qo'shin bilan qo'rg'onga hujum qilganida, Gadoybiy dodxoh Buxoro avangardini tor-mor keltirgan. Lekin, ertasi kungi hujumga dosh bera olmay, Peshagarni tashlab chiqishga majbur bo'lgan. Bu voqeadan so'ng buxoroliklarning g'alabali yurishlari boshlangan. 1841-yil sentyabrda amir Nasrullo boshchiligidagi 60 ming kishilik qo'shin Jizzaxdan chiqib, Iomani qurshovga olgan. Buxoroliklarning 470 ta to'p bilan 3 kunlik qamali natijasida qo'rg'on vayron qilingan. 22-sentyabrda buxoroliklar O'ratepa qamalini boshlagan. Shahar begi taslim bo'lishini bildirib, amirga elchi yuborgan. Xuddi shu paytda shaharga yaqinlashib qolgan Madalixon 15 ming kishilik qo'shin bilan amir qo'shinlariga zarba bermoqchi bo'lgan. Lekin, xon qo'shini mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'lgan.

1840 – 1841-yilgi voqealar tarixiy manbalarda turlicha berilgan, ya'ni, Peshagar qo'rg'onining Buxoro qo'shinlari tomonidan egallanishi Madalixonga og'ir ruhiy zarba bo'lgan. Natijada, xon mudofaani tashlab, Xo'jandga, undan poytaxtga qaytib ketgan. Jangchilar orasida ham sarosima boshlanib, boshqaruv izdan chiqqan. Ilgari chegara hududlarida bo'lgan harbiy harakatlar endi butkul xonlik hududlarga ko'chgan. Qo'qonliklar qo'shinidagi sarosimadan foydalangan amir Nasrulloxon askarlarining bir qismi Sulton Mahmud boshchiligida Xo'jandga yurish qilgan, biroq shahar jangsiz taslim bo'lgan. Sulton Mahmud va Nasrulloxon qo'shinlari Xo'jandda birlashib, Toshkentni zabt etish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlagan. Shu paytda Toshkent mansabdorlari Buxoroga o'tishni ixtiyor etgan edilar. Osonlik bilan g'alabaga erishgan Buxoro qo'shinlari tez orada Toshkentdan so'ng Konibodom, Mahram, Beshariqni egallagan va Qo'qon shahridan 30 chaqirim masofada qarorgoh qurganlar. Nasrulloxon Qo'qon shahrini jangsiz taslim bo'ladi, deb o'ylagan edi. Biroq, qo'qonliklar butun harbiy kuchlarini shahar atrofiga to'plab shahar mudofaasiga tayyorgarlik ko'rgan. Vaziyat amir kutganidek bo'lib chiqmagan: urush



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

uzoqqa cho'ziladigan bo'lgan. Qish yaqinlashganligi sababli, Buxoro qo'shinida oziqovqat va kiyim-kechak tanqisligi sezilib, ahvol og'irlashgan. Qo'shinning asosiy qismini dehqonlar tashkil etganligi uchun o'z yerlaridagi hosilni yig'ishtirib olish g'ami jang qilishdan ustun kelib, qo'shinda norozilik sezila boshlangan. Shunday sharoitda Nasrulloxon uchun sulh tuzish eng maqbul yo'l edi. Madalixonning ahvoli ham Nasrulloxonnikidan yaxshi emasligi uchun kelishuvga rozi edi. Amir va xon o'rtasida sulh shartnomasi tuzilib, kelishuvga ko'ra, bosib olingan O'ratepa, Toshkent, Zomin, Ioma va Kan yerlari Buxoroniki, deb tan olingan. Xo'jand va uning atrofidagi yerlar alohida mustaqil davlat sifatida tan olingan. Sulton Mahmud yangi davlatning hukmdori, deb e'lon qilingan (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Madalixon o'z ukasi foydasiga taxtdan voz kechgan). Amir Nasrulloxonning rejasiga ko'ra, Xo'jand Buxoro nazorati ostida bo'lishi kerak edi. Amir Nasrulloxon sharqiy chegaralarning mustahkamligiga ishonch hosil qilib, Buxoroga qaytib ketgan. Bo'lib o'tgan voqealar Madalixonning obro'sini tushirib yuborgan. Quyi tabaqa ham, saroy a'yonlari ham urushdagi og'ir yo'qotishlardan norozi edilar. Yangi Xo'jand davlati hukmdori Sulton Mahmud o'z akasi hokimiyatini tan olishni istamagan. U davlatni mustahkamlash choralari ko'rgan. Hatto, Peterburgga va Sibir general-gubematori Gorchakovga elchi jo'natib, Rossiya Qo'qon (yangi Qo'qon) munosabatlarining rivojlanishiga xayrixoh ekanligini bildirgan.

Xonlikning ikkiga bo'linishi va ularning mustaqil siyosiy faoliyat yuritishi minglarning kelajagi uchun to'g'anoq edi. Buni o'z vaqtida tushunib yetgan Nodirabegim o'g'illarini yarashtirish maqsadida saroy a'yonlari bilan kichik o'g'li Sulton Mahmud huzuriga – Xo'jandga kelgan va uni akasi bilan yarashishga ko'ndirgan. Nodirabegim o'g'illari Madalixon va Sulton Mahmud o'rtasida kelishuvga erishgan. Kelishuvga ko'ra, Sulton Mahmudning yerlari yana Qo'qonga qo'shib olinib, o'zi Toshkentga bek etib tayinlangan. Nodirabegimning sa'y-harakatlariga qaramay, Qo'qon saroyida ahvol yaxshilanmagan. Saroy a'yonlarining bir guruhi Sheralini, bir guruhi Murodbiyni, uchinchi guruhi esa Sulton Mahmudni xon qilib ko'tarishga zimdan harakat qilayotgan edilar.

Nasrulloxon Madalixon va Sulton Mahmud o'rtasida kelishuvga erishilganidan xabar topgach, qattiq g'azablangan va yangi yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlagan. 1842-yil 2-aprelda Nasrulloxonning Qo'qonga ikkinchi yurishi boshlangan. Xiva –



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

Buxoro chegarasida ahvolning murakkabligi sababli amir qo'shinlarining bir qismi Buxoroda qoldirilgan. Qo'qon yurishiga 18 ming askar jalb etilgan. Qo'shinda askar sonining ozligiga qaramasdan, qisqa muddat ichida Nasrulloxon o'z qo'shini bilan Buxorodan Qo'qongacha bo'lgan masofani bosib o'tib, 17-aprelda xonlik poytaxtidan 15 – 16 chaqirim (bir chaqirim, taxminan, 1,07 km. ga teng) masofada qarorgoh qurdirgan. O'z kuchiga ishonmagan Muhammad Alixon amir huzuriga sulh tuzish maqsadida katta o'g'li Muhammad Amin boshchiligida elchi jo'natgan. Saroydagi parokandalikdan, xonning yakkalanib qolganligidan xabardor bo'lgan Nasrulloxon elchilarga og'ir shartlar qo'ygan. Bu shartlar Qo'qonning Buxoroga tobeligini bildirar edi: Qo'qon masjidlarida amir nomiga xutba o'qittirish, tilla va kumush tangalami amir nomi bilan zarb etish va h.k. Shuningdek, sulh tuzish uchun Nasrulloxon huzuriga Madalixonning o'zi kelishi ta'kidlangan. Xon esa, mol-mulkini aravalarga orttirgan va 1000 ta sarbozi bilan Namangan tarafga qarab qochgan. Sarbozlarning faqat 3 tasi xonga sodiq bo'lib chiqqan. Qolganlari yo'lda xon mulkini talab, Qo'qonga qaytib kelgan. Boshqaruvsiz qolgan poytaxtni qushbegi va qozikalon Nasrulloxonga ochib berganlar. Amir poytaxtga kirgach, o'z qo'shiniga shaharni 4 soat talashga ruxsat bergan. Nasrulloxonning 18 ming askari shu vaqt ichida oddiy dehqon va hunarmanddan tortib, to saroy amaldorlarigacha talab, shaharni shipshiydon qilgan.

Nasrulloxon oldingi xatolar qaytarilmasligi uchun qat'iy choralar ko'rishi kerak edi. U Buxoroning va Qo'qonning yuqori mansabdorlari ishtirokida kengash chaqirib, o'z farmonini o'qib eshittirgan. Farmonga ko'ra, Qo'qon xonligi Buxoro amirligiga butunlay qaram bo'lishi kerak edi. Taxtga da'vo qiluvchi xon avlodlarining barchasi qatl etilishi, bundan keyin amir hokimiyatiga qarshi norozilik harakatlari yoki qo'zg'olon ko'tarilmasligi uchun Qo'qonning yirik mansabdorlari, umuman, yuqori tabaqa vakillari farzandlaridan bir nechasi garov sifatida Buxoroga olib ketilishi e'lon qilingan. Nasrulloxonning amriga ko'ra, Muhammad Alixon, uning ukasi Sulton Mahmud, o'g'illari Muhammad Amin, Muzaffar, onasi Nodirabegim va xotinlari qatl etilgan. Yuqori tabaqa vakillaridan 250 kishini garov sifatida Buxoroga jo'natildi. Nasrulloxon g'alaba bilan Buxoroga qaytar ekan, xonlikni boshqarish uchun Ibrohim dodhohni noib etib tayinlab, uning ixtiyoriga 6000 kishilik qo'shin qoldirgan. Ibrohim Xayol Qo'qondagi hukmronligini aholini uy-joylarini, mol-



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

mulkini musodara qilish, soliqlarni oshirish kabi tadbirlar bilan boshlagan. Bunday siyosatdan faqat kambag'al dehqon va hunarmandlargina emas, yirik feodallar ham norozi edilar. Buning ustiga davlat va diniy mansablarga buxoroliklar tayinlangan edi [5. – B. 41-45.].

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Muhammad Alixon Qo'qon xonligi tarixida murakkab va qarama-qarshi baholangan shaxs hisoblanadi. Ba'zi tarixchilar uning davrini ijobiy baholashsa, ba'zilar esa salbiy tomonlar bilan baholaydi. Uning hukmronlik davri hududiy kengayish va madaniy yuksalish, shu bilan birga jiddiy siyosiy mag'lubiyatlar bilan ajralib turadi. Muhammad Alixon davrining boshlanishi hududiy kengayish, xalqaro aloqalar, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy sahodagi ishlari bilan taqsga sazovor. Lekin keyinchalik aysh-u ishratga berilib, kaltabinlik bilan chiqargan qarorlari hamda o'gay onasiga uylanganligi va buning ortidan Buxoro – Qo'qon munosabatlarining taranglashganligi sababli ham tarixning qora sahifalaridan o'rin olganligi bejiz emas. Ammo nima bo'lganda ham bir tomonlama qaror chiqarishimiz nohaqlik bo'ladi. O'tmishimizga haqiqat nigohlari bilan boqib xolisona fikr yuritsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzoolim Mushrif. Ansob us-salotin av tavorix ul-xavoqin ("Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi"). – T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
2. Shamsuddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. II kitob. –T.: Sharq, 2010.
3. Boboyev H., Xidirov Z., Shodiyev J., Axmedova M. O'zbek davlatchiligi tarixi. II kitob. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
4. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
5. Kuzikulov Ikromjon. Qo'qon xonligi tarixi. – Namangan, 2014.